

MA'MUN UNIVERSITETI

XALQLAR DO'STLIGI VA MILLIATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

URGANCH 2026

WWW.MAMUNEDU.UZ

UO‘K: 620.22(085.8)
KBK: 30.3da73
“XALQLAR DO‘STLIGI VA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA’MINLASHDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING ROLI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –QAL’A NASHR 2026. 458 bet.

ISNB 978-9910-8339-1-5

“Xalqlar do‘stligi va millatlararo totuvlikni ta’minlashda oliy ta’lim muassasalarining roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda Xalqlar do‘stligi va millatlararo totuvlikni ta’minlashda oliy ta’lim muassasalaridagi umumiy do‘stlik masalalar, o‘zaro totuvlik ta’sir masalalari, tarixiy an’analar, xalqlarning o‘ziga xos va mushtarak jihatlarini tadqiq qilish, ta’lim masalalari yoritilgan. Anjuman – Oliy ta’lim tizimida millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari, Xalqaro ta’lim hamkorligi: global integratsiya va madaniy almashinuv mexanizmlari, Ijtimoiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashda ilmiy tadqiqotlarning o‘rni, Talabalar o‘rtasida do‘stlik, hamjihatlik va fuqarolik ongini rivojlantirish strategiyalari, yo‘nalishlarida ish olib borgan.

Ushbu anjuman materiallari Ma’mun universiteti kengashi tomonidan to‘plam sifatida nashrga tavsiya etilgan. (2026-yil 28-fevraldagi № 7-bayonnoma)

Mas’ul muharrir: **S.O‘.Sharifzoda –** PhD., professor.

Tahrir hay’ati raisi: **U.R.Matyakubov –** Iqtisod fanlari doktori., professor.
Tahrir hay’ati a’zolari: **E.M.Xudaynazarov** – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
I.Rejapov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
H.Yunusxo‘jayev– tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar: **N.E.Sobirova** – f.f.d., prof.
S.R.Davletov – t.f.d., prof

QAL’A NASHR

MUNDARIJA

I-SHO‘BA	
Eri Kurniawan. THE ROLE OF SCIENTIFIC RESEARCH IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY AND INTERETHNIC HARMONY: LESSONS FROM THE BADUY COMMUNITY, INDONESIA	3
Rajapov Odilbek Anvarbekovich. Umarov Doniyor Azadbekovich GLOBALLASHUV SHAROITIDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA MADANIYATLARARO MULOQOTNI MUSTAHKAMLASH: TURKMANISTONLIK TALABALAR MISOLIDA	6
Aliyeva Sevinge Jangi kizi. THE ROLE OF SCIENTIFIC RESEARCHES IN THE MODERN SOCIETY	9
Masharipova Manzura Alimbayevna., Palvonnazarova Charos Xakimovna. OLIY TA’LIMDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA STRATEGIK ASOSLARI	11
Baxtiyorova Vasilaxon Muzaffarovna., Raximova Sadoqat Mamutovna. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA SUG‘URTA TIZIMI ORQALI TALABALAR IJTIMOIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA FUQAROLIK ONGINI RIVOJLANTIRISH	14
Kuvondik Kodirov., Gulzoda Artikov. COMPARATIVE ANALYSIS OF UNIVERSITY STUDENT EXCHANGE PROGRAMS AND INDEPENDENT STUDY ABROAD: OPPORTUNITIES AND RISKS	16
N.B.Karimova. OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TA’LIMDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA SHAXSIY MA’LUMOTLARNI HIMOYALASH MASALALARI	19
O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich., Bekbergenov G‘ayrat Shuxratovich. OLIY TA’LIM TIZIMINING MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI IQTISODIY ROLI	22
Alisher Ergashev Rasuljon ugli. SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI INGLIZ TILI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM	25
Ruzmetov Sherzod Arslon o‘g‘li. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FUQAROLIK ONGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK FAOLIYATNING STRATEGIK AHAMIYATI	28
Xolmurotov Fozil Saribayevich. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI	30

ALMASHINUV VA TA’LIM HAMKORLIGI	
Mustafo Yunusxo‘jayev. NAJMIDDIN KUBRONING TARBIYAVIY QARASHLARI	448
Masharipova Xosiyat Matrasulovna. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2025-YILDA INFLYATSIYA DARAJASI: DINAMIKA, TARKIBIY VA MAKROIQTISODIY TAHLIL	450
Matkarimov Akbar Muso o‘g‘li. DAVLAT BYUDJETIDA IJTIMOIY SOHALARGA XARAJATLARNING ULUSHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI	454
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2025-YILDA YALPI ICHKI MAHSULOTINING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA TARKIBI, DINAMIKASI VA STRUKTURAVIY O‘ZGARISHLARI	457
Sherjonov Sherjon Alijan o‘g‘li. RAQOBAT VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	459
Мадрахимова Барно Фрунзевна. ФОРМИРОВАНИЕ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	462
H.Z.Yunusxo‘jayev. O‘ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTINING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	464
III-SHO‘BA	
Кайролла Динара Нуржановна., Әуелбек Ақмаржан Өсемханқызы. ПРИМЕНЕНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	466
Умид Бекмуҳаммад. БОШҚИРД ВА ТАТАР ПЕДАГОГЛАРИНИНГ ХОРАЗМ ЖАДИД МАКТАБЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИ ҲАМДА ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАЛАРИ	469
Davletov Sanjarbek Rajabovich. GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIKNI MUSTAHKAMLASH OMILLARI	473
Dehqonboyeva Zarifa Akramjon qizi. YANGI TASHABBUSLAR VA AMALIY MEXANIZMLAR ORQALI TA’LIM VA IJTIMOIY INTEGRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH: PEDAGOGIK YONDASHUV VA INNOVATSIYA	476
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li. IJTIMOIY BARQAROR JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA AKADEMIK ERKINLIK ASOSIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATI NATIJASI	479
Ro‘ziyeva Zarnigor Otabek qizi. YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA	484

telekanallar, kinoindustriya va multiplikatsiya sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda turkiy madaniy kontentni ko‘paytirish.

Xulosa qilib aytganda, turkiy dunyo integratsiyasi — bu o‘tmishga qaytish emas, balki umumiy madaniy merosga tayangan holda **modernizatsiyalashgan kelajakni** barpo etishdir. Ta’lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik mexanizmlarini optimallashtirish, turkiy davlatlarning xalqaro munosabatlar tizimidagi yangi, mustaqil va qudratli qutb sifatida shakllanishini ta’minlovchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Avcı, C.** (2024). Folklor ve Kültürel Güvenlik (II): Türk Devletleri Teşkilatı 2040 Vizyon Belgesi'nin Sunduğu İmkânlar. *Folklor Akademi Dergisi*, 7(3), 1260-1275.
2. **Türk Dünyası 2040 Vizyon Belgesi.** (2021). İstanbul Zirvesi Bildirisi, 1-17.
3. **Sagatova, Z. B.** (2023). Turkiy davlatlar tashkilotining yaratilish tarixi xususidagi mulohazalar. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar*, №1, 105-112.
4. **Haftalık e-bülten.** (2021). Türk Dünyası Bütünleşmesinde Yeni Bir Dönüm Noktası. *Eurasian Research Institute*, No: 331.
5. **Xodjayeva, K.** (2025). Turkiy davlatlarda yoshlarni kasbga yo‘naltirishda innovatsion yondashuvlar. *“Turkiy davlatlarning o‘zaro manfaatli integratsiyasi – barqaror taraqqiyot kafolati” II xalqaro konferensiya materiallari*, 413-415.
6. **Usmon Turon.** (1995). *Turkiy xalqlar mafkurasi*. Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti.
7. **Tojiyev, D., Davkarov, A.** (2023). Globallashuv sharoitida Turkiy davlatlar tashkiloti tarixi va istiqbolining o‘rganilishi. *O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 25-son, 108-110.
8. **Eltazarov, J.** (2021). Umumturk Integralizmining Doimiy kodlari: Tilda, Fikrda, Ishda, Ilm-fanda va Texnologiyada Birdamlik. *Academic Journal of History and Idea*, Vol.8, 468-480.
9. **Bayaliyev, J.** (2024). Turkiy davlatlar tarixida amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy islohotlar. *Konferensiya materiallari to‘plami*, 1248-1250.

NAJMIDDIN KUBRONING TARBIYAVIY QARASHLARI

Mustafo Yunusxo‘jayev
UrDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Najmiddin Kubroning yoshlarni tarbiyalashdagi qarashlari va ularning yechimlari keltirgan.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, yoshlar, tasavvuf, tarbiya, so‘fiylik, axloq, odob, poklik, sabr, muhabbat.

Аннотация: В данной статье автор представляет взгляды Наджмиддина Кубро на образование молодежи и пути решения этой проблемы.

Ключовое слово: Наджмиддин Кубро, молодость, мистицизм, образование, суфизм, мораль, порядочность, чистота, терпение, любовь.

Annatation: In this article, the author presents Najmiddin Kubro's views on educating young people and their solutions.

Key words: Najmiddin Kubro, youth, mysticism, education, Sufism, morality, decency, purity, patience, love.

Yoshlar tarbiyasi – har bir jamiyatning ma’naviy, axloqiy va intellektual taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardandir. Shu sababli, qadimdan Sharq mutafakkirlari, xususan, tasavvuf maktabining buyuk vakillari bu masalaga alohida e’tibor qaratganlar. Ular yosh avlodni nafaqat ilmga, balki axloq, odob, qalb pokligi, sabr va muhabbat ruhida tarbiyalashni eng oliy burch deb bilganlar.

Shu jihatdan, Najmiddin Kubro (1145–1221) – o‘z davrida nafaqat so‘fiylik tariqatining asoschisi, balki tarbiya nazariyasining amaliy asoschisi sifatida ham e’tirof etiladi. Uning ta’limoti “komil inson” g‘oyasiga tayanadi. Kubro yoshlarni nafaqat dunyoviy, balki ruhiy-ma’naviy jihatdan mukammal bo‘lishga da’vat etadi.

Najmiddin Kubro ta’limotida inson kamoloti uch asosda ifodalanadi:

Ilm – bilish va tafakkur orqali haqiqatni anglash;

Amal – ilmini amalda qo‘llash;

Axloq – qalb pokligi va ichki go‘zallikni tarbiyalash.

Bu uch yo‘nalish bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Najmiddin Kubro hayoti va pedagogik tafakkurining manbalari

Najmiddin Ahmad ibn Umar Abuljannob al-Kubro al-Xivaqiy Xorazmning Xivaq qishlog‘ida, hijriy 540 (milodiy 1145) yilda tug‘ilgan. U ilmni dastlab Xorazmda, keyinchalik Nishopur, Isfahon va Bag‘dodda o‘rganadi. Ustozlaridan Ruzbihon Isfahoniy, Amr ibn Alouddin as-Sa’diy, Imom Abul Hasan al-Bahroniy kabi mashhur so‘fiylardan ta’lim olgan .

Uning asarlari orasida “Favoih al-jamal wa favoih al-jalal”, “Usul al-Ashara”, “Risalat at-turuq”, “Odob al-muridin” va “Sharh as-sunna wa-l-masolih” kabi risolalar mavjud. Aynan shu asarlarida u tarbiya, ruhiy poklanish va insonni kamolotga yetkazish masalalariga chuqur ilmiy-axloqiy yondashgan.

Uning pedagogik qarashlari Qur’on oyatlari va hadislar bilan uyg‘un:

“Qalb pok bo‘lmasa, ilm foyda bermaydi; axloq tozalanmasa, ibodat mukammal bo‘lmaydi.” (*Favoih al-jamal*, 2-jild, 58-bet)

Bu fikr Kubro ta’limotida tarbiya – nafaqat bilim berish, balki ruhni va niyatni tozalash jarayoni ekanini ko‘rsatadi.

Shayx Najmidin Kubro ta’limotidagi inson bilan bog‘liq ja’mi masalalar, ya’ni Najmidin Kubroning butun ijodiyotining mohiyati bir so‘z bilan aytganda insondir. Negaki, bu ulug‘ zotning deyarli hamma asarlarida ushbu masala bosh o‘rinda turadi. Shu bilan birga insonga bo‘lgan munosabat, to‘g‘rirog‘i insonparvarlik ham shundan kelib chiqadi.

“Insonparvarlik (gumanizm) odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, moddiy farovonligini yuksalatirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash. Insonning, insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo‘lgan adolat haqidagi orzular qadimiy xalqlarning og‘zaki ijodida, mifologik, diniy, falsafiy qarashlarida yuzaga chiqa boshlagan...”[4]

Ma’lumki, Sharqda futuvvat harakati insonparvarlikning yorqin namunasi, sifatida qaraladi. Hattoki, afsonaviy Xotami Toy ham insonparvar kishining umumlashgan obraziga aylantirilgan. Najmidin Kubro asarlarida ham futuvvat bilan bog‘liq jihatlar ayniqsa insonparvarlik bilan bog‘liq o‘rinlarda o‘z aksini topgan. Najmiddin Kubro “Usul al-Ashara” (“O‘n asos”) asarida so‘fiylik yo‘lining ma’naviy-pedagogik bosqichlarini bayon etar ekan, ularni faqatgina muridlar uchun emas, balki inson tarbiyasining universal

tamoyillari sifatida taqdim etadi. Bu o‘n bosqich — tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, davomli zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo — aslida shaxsning bosqichma-bosqich kamolotga chiqish modeli bo‘lib, bugungi pedagogikadagi “shaxsni ma’naviy rivojlantirish texnologiyasi”ga juda yaqin turadi. Kubro har bir bosqichni nafaqat ruhiy-amaliy holat sifatida, balki insonni tarbiyalovchi ichki mexanizm sifatida ham ko‘radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шайх Нажжали Кубро Расплаве одоб уз-зокарин. ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар фонди, инв.№№503 Х.355 Каране Шайх Нажмиддин Кубро Шарки рисолайе одоб ул-хокарин (форс тилидан М. Колеров таржимаси) Урганч Хоразм, 1997-32-33 66.
2. Н. Комилов. Тасаввуф. 1-китоб.-Т. Ёзувчи, 1996.-26-6.
3. Шайх Нажмиддин Кубро. Рисолайе одоб ул-зокиран. ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар фонди, инв. №503 Х,3436в. (форс тилидан М. Кодиров таржимаси).
4. Фалсафа комусий луғати. -Т.: Шарқ, 2004.-166-бет.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2025-YILDA INFLYATSIYA DARAJASI: DINAMIKA, TARKIBIY VA MAKROIQTISODIY TAHLIL

Masharipova Xosiyat Matrasulovna
Ma’mun universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti dotsenti, PhD
e-mail: masharipova_xosiyat@mamunedu.uz

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida 2025-yil yakunlari bo‘yicha inflyatsiya darajasi, oylik va yillik dinamikasi, iste’mol narxlari indeksi (INI) tarkibiy guruhlari bo‘yicha o‘zgarishlar hamda aholining inflyatsiya kutilmalari tahlil qilinadi. 2025-yilda yillik inflyatsiya 7,3% ni tashkil etib, 2024-yildagi 9,8% dan sezilarli pasaydi va so‘nggi 9 yildagi eng past ko‘rsatkich bo‘ldi. Tahlil inflyatsiyaning asosiy omillari, regional farqlar va kelajak prognozlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: inflyatsiya, iste’mol narxlari indeksi, yillik inflyatsiya, oylik inflyatsiya, oziq-ovqat narxlari, xizmatlar inflyatsiyasi, Markaziy bank, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Kirish

2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish (YAIM +7,7%) fonida inflyatsiya bosimini sezilarli darajada kamaytirdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yillik inflyatsiya (dekabr 2025 ga nisbatan dekabr 2024) 7,3% ni tashkil etdi. Bu 2024-yildagi 9,8% dan 2,5 foiz punktga past va 2016-yildan beri eng past daraja hisoblanadi (2023-yilda 8,8%). Markaziy bank ma’lumotlari ham shu ko‘rsatkichni tasdiqlaydi: dekabr oyida oylik inflyatsiya 0,9%, yillik esa 7,3% bo‘ldi. Bu natija monetar siyosatning qattiqlashuvi (refinansiya stavkasi 14% atrofida saqlangan), import o‘rnini bosish va ichki talabning barqarorligi natijasidir.

1-jadval.

2025-yilda oylik va yillik inflyatsiya dinamikasi (%)

Oy	Oylik inflyatsiya (o‘tgan oyga nisbatan)	Yillik inflyatsiya (o‘tgan yilning shu oyiga nisbatan)
Yanvar	0,7	9,9
Fevral	0,5	10,1
Mart	0,9	10,3